



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY Tajribalar tahlili va uni O’zbekiston sharoitida qo’llash imkoniyatlari	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY Tajribalari	73
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSİYALAR KESIMIDA)	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Elomonov Dadaxon Ozodullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

E-mail: dadaxonelomonov9006@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6331-1960

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan. Xususan, kimyo sanoati korxonalari misolida audit jarayonlarini AXS (ISA) standartlari asosida tashkil etishning afzalliklari, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, audit xavfini kamaytirish hamda raqamli audit instrumentlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 315-AXS va 330-AXS standartlarini qo'llash audit samaradorligini oshirib, tekshiruv muddatini qisqartiradi hamda investorlar ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, ERP va SAP tizimlari bilan integratsiyalashgan raqamli audit modeli korxonalarda moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, audit, xalqaro standartlar, AXS, ISA, MHXS, raqamli audit, ichki nazorat, investor ishonchi.

Аннотация. В статье исследованы перспективы совершенствования аудита финансовой отчетности на основе международных стандартов. На примере предприятий химической промышленности рассмотрены преимущества организации аудита в соответствии со стандартами ISA, вопросы усиления системы внутреннего контроля, снижения аудиторских рисков и внедрения цифровых инструментов аудита. Результаты исследования показывают, что применение стандартов ISA 315 и ISA 330 способствует повышению эффективности аудита, сокращению сроков проверки и укреплению доверия инвесторов. Также обоснована значимость цифровой модели аудита, интегрированной с ERP и SAP системами, для обеспечения финансовой прозрачности предприятий.

Ключевые слова: финансовая отчетность, аудит, международные стандарты, ISA, IFRS, цифровой аудит, внутренний контроль, доверие инвесторов.

Abstract. This article examines the prospects for improving the audit of financial statements based on international standards. Using chemical industry enterprises as an example, the study highlights the advantages of organizing audits in accordance with ISA standards, strengthening internal control systems, reducing audit risks, and implementing digital audit tools. The findings indicate that the application of ISA 315 and ISA 330 standards increases audit efficiency, shortens inspection periods, and enhances investor confidence. In addition, the importance of a digital audit model integrated with ERP and SAP systems in ensuring corporate financial transparency is substantiated.

Keywords: financial statements, audit, international standards, ISA, IFRS, digital audit, internal control, investor confidence.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida kimyo sanoati eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi qariyb 5,7 trillion dollarni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu tarmoqni transformatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori bilan yirik soliq to'lovchilar hamda xo'jalik jamiyatlarining 2021-yildan boshlab MHXS (IFRS) asosida moliyaviy hisobot tayyorlashga o'tishi belgilanganligi ushbu hisobotlarni xalqaro audit standartlari AXS (ISA) asosida tekshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

O'zkiyosanoat AJ tizimidagi korxonalar respublikada sanoat mahsulotining salmoqli qismini ishlab chiqaradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yakunlari bo'yicha tarmoq korxonalari tomonidan ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshib, eksport ko'rsatkichlari 500 million dollardan ortiqni tashkil etgan. Shu bilan birga, sohada aktivlar qiymatining yuqoriligi hamda murakkab ishlab chiqarish sikli moliyaviy hisobotlarda xatoliklar xavfini kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.



Audit sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi yirik aksiyadorlik jamiyatlarida audit jarayonini AXS talablariga to'liq moslashtirish orqali investorlar ishonch indeksini 15–20 foizgacha oshirish imkoniyati mavjud. Biroq, hozirgi kunda kimyo sanoati korxonalarida ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash hamda raqamli audit instrumentlarini joriy etish darajasini yanada oshirish zarurati mavjud. Xususan, O'zkimyosanoat AJ tarkibidagi 20 dan ortiq korxonaning moliyaviy ma'lumotlarini konsolidatsiya qilish va ularni 315-AXS asosida xavflarni baholash orqali audit qilish nafaqat hisobotlarning aniqligini ta'minlaydi, balki tarmoqning xalqaro kapital bozoridagi mavqeini ham mustahkamlaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, moliyaviy hisobotlar auditini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy yechimlarini ishlab chiqishdan iborat. O'zkimyosanoat AJ tizimida 2021–2025-yillarga mo'ljallangan modernizatsiya dasturi doirasida jami 2 milliard dollardan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda. Mazkur holat katta hajmdagi kapital qo'yilmalar auditiga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 315-AXS va 330-AXS standartlarini tizimli qo'llash orqali auditorlik tekshiruvi vaqtini 25 foizgacha qisqartirish hamda resurs tejamkorligiga erishish mumkin.

Kimyo sanoatida ERP tizimlarini, jumladan SAP platformasini audit jarayonlari bilan integratsiya qilish darajasi hozirda 30 foiz atrofida bo'lib, ushbu ko'rsatkichni yanada oshirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Mazkur yo'nalish moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini kuchaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlardan Adam Hayes hamda Margaret James fikriga ko'ra, audit faqatgina moliyaviy hujjatlarni tekshirish jarayoni emas, balki biznes risklarini baholashning muhim vositasi hisoblanadi. Ularning yondashuvida audit korxona faoliyatidagi moliyaviy xavflarni aniqlash, boshqaruv qarorlarini asoslash va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Matias Laine, Helen Tregidga hamda Jeffrey Unerman auditda tizimli yondashuv konsepsiyasini ilgari surganlar. Ularning fikricha, ichki nazorat tizimi samarali shakllantirilgan korxonalarda auditorlik tanlanmasi hajmini maqbullashtirish mumkin. Mazkur yondashuv audit jarayonining samaradorligini oshirish, vaqt va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Mahalliy olimlardan I.N. Qo'ziev auditning investitsion jozibadorlik funksiyasini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, AXS asosida shakllantirilgan audit xulosasi korxonaning moliyaviy barqarorligi va investitsion salohiyatini baholashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, yirik xoldinglarda audit nafaqat buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini, balki ishlab chiqarishdagi texnologik yo'qotishlar hamda normativ xarajatlarning to'g'ri shakllanishini ham nazorat qilishi lozim.

Ushbu yondashuv 520-AXS "Analitik amallar" standartini qo'llashda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur standart asosida auditor moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi, nisbatlar tahlili va og'ishlarni baholash orqali korxona faoliyatidagi ehtimoliy xatolarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois, xalqaro audit standartlarini milliy amaliyotga moslashtirish moliyaviy hisobotlar auditining sifatini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil hamda xalqaro audit amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or usullar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida moliyaviy hisobotlar auditining amaldagi holatini baholash, xalqaro audit standartlari asosida mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash maqsadida qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, guruhlash, kuzatish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, kimyo sanoati korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari, ichki nazorat tizimi va audit jarayonlari samaradorligi o'rganilib, olingan natijalar asosida ilmiy xulosa hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zkimyosanoat AJ tarkibida 20 dan ortiq korxona, jumladan Navoiyazot AJ, Farg'onaazot AJ hamda Dehqonobod kaliy zavodi faoliyat yuritadi. Mazkur korxonalarning har birida kunlik minglab tranzaksiyalar amalga oshiriladi. An'anaviy audit amaliyotida 315-sonli AXS (ISA 315) — tashkilot va uning muhitini o'rganish orqali jiddiy buzilishlar riskini aniqlash va baholash jarayoni ko'pincha subyektiv yondashuv hamda tanlanma (sampling) usuliga asoslanadi. Natijada ayrim tizimli xatoliklarni o'z vaqtida aniqlash imkoniyati cheklanishi mumkin.



Taklif etilayotgan algoritm O'zkimyosanoat AJning markazlashgan ERP tizimiga, jumladan SAP S/4HANA platformasiga integratsiyalashgan holda, ikki bosqichli kognitiv tahlilni amalga oshiradi. Birinchi bosqich texnologik-moliyaviy bog'liqlik (Cross-Check) tahlili bo'lib, unda ishlab chiqarishdagi xomashyo sarfi (masalan, tabiiy gaz yoki fosforit) hamda tayyor mahsulot hajmi o'rtasidagi texnologik normativlar moliyaviy hisobotdagi xarajatlar bilan qiyoslanadi. Masalan, Navoiyazot AJda ammiak ishlab chiqarish uchun gaz sarfi me'yor darajasida bo'lib, biroq tannarxda "boshqa xarajatlar" keskin oshgan taqdirda, tizim ushbu holatni avtomatik ravishda yuqori riskli zona sifatida belgilaydi.

Ikkinchi bosqich tranzaksion anomalionalarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda ML (Machine Learning) texnologiyalari qo'llaniladi. Tizim O'zkimyosanoat AJ tarkibidagi korxonalarning so'nggi 5-yillik ma'lumotlarini tahlil qilib, tipik bo'lmagan tranzaksiyalarni aniqlaydi. Masalan, kimyoviy o'g'itlarni eksport qilishda odatdagidan past narxlar yoki standart bo'lmagan to'lov muddatlari qo'llanganda, algoritm auditorni hisobot davri yakunini kutmasdan tezkor ravishda ogohlantiradi.

Shuningdek, SAP S/4HANAtizimining "Xomashyo ombori", "Ishlab chiqarish sexi" va "Buxgalteriya" modullari ma'lumotlari o'zaro solishtiriladi. Agar Navoiyazot AJda mineral o'g'it ishlab chiqarish hajmi normativdan 0,5 foizga farq qilsa, biroq buxgalteriya hisobotida mazkur tafovut aks ettirilmagan bo'lsa, tizim avtomatik ravishda manipulyatsiya riski darajasini oshiradi. Natijada auditor aniq dalillarga tayangan holda rahbariyatga "Asosiy audit masalalari" yuzasidan asoslantirilgan xulosalar va tavsiyalarni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. O'zkimyosanoat AJ misolida auditning qiyosiy tahlili

Bosqich	An'anaviy audit (eskicha)	Raqamli kognitiv audit (yangicha)
Ma'lumot yig'ish	Auditor korxonaga borib, hujjatlarni tanlab oladi.	ERP tizimidan barcha tranzaksiyalar (100%) avtomatik yuklanadi.
Muhimlik darajasi	Umumiy aktivlarning 1–2% miqdorida belgilanadi.	Har bir sho'ba korxonaning, jumladan Maksam-Chirchiq AJ va boshqalarning risk profili asosida dinamik ravishda belgilanadi.
Rejalashtirish	Taxmin va tajribaga tayaniladi.	"Heat Map" (issiqlik xaritasi) asosida eng yuqori xatolik ehtimoli mavjud jarayonlar (masalan, ta'mirlash xarajatlari) aniqlanadi.

O'zkimyosanoat AJ va uning tarkibidagi korxonalarning 2022–2025-yillardagi moliyaviy hisobotlari hamda auditorlik tekshiruvlari natijalari tahlil qilinganda, AXS (ISA) standartlarini joriy etishning ijobiy dinamikasi kuzatildi. Audit xavfini baholash natijalari tadqiqot doirasida qo'llanilgan $AR = IR \times CR \times DR$ modeli asosida O'zkimyosanoat AJ tizimidagi xavflarning miqdoriy baholanishiga xizmat qildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli audit instrumentlarini joriy etish natijasida "aniqlanmaslik xavfi" (DR) ko'rsatkichi sezilarli darajada kamaygan. Bu esa auditorlik tekshiruvlarining aniqligi oshganini, xatolarni o'z vaqtida aniqlash imkoniyatlari kengayganini hamda audit jarayonining samaradorligi yuksalganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O'zkimyosanoat AJda audit xavfi komponentlarining o'zgarish dinamikasi (foizda)

Ko'rsatkich nomi	2023-y. AMS asosida	2025-y. AXS asosida	O'zgarish (+/-)
Ichki xo'jalik xavfi (IR)	85%	70%	-15%
Nazorat xavfi (CR)	60%	45%	-15%
Aniqlanmaslik xavfi (DR)	40%	20%	-20%
Umumiy audit xavfi (AR)	20,4%	6,3%	-14,1%

Izoh: AXS 315 va AXS 330 standartlarining tizimli qo'llanilishi natijasida umumiy audit xavfini qariyb 3 barobarga kamaytirishga erishilgan.

Aktivlar auditi hamda MHXS (IFRS) transformatsiyasi jarayonida kimyo sanoatida asosiy vositalarning ulushi yuqori ekanligi inobatga olindi. Shu asosda 540-AXS standarti bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida aktivlarning qadrsizlanishi va qayta baholanishi yuzasidan quyidagi ma'lumotlar shakllantirildi (3-jadval).



3-jadval. O'zkimyosanoat AJ tarkibidagi yirik korxonalarning aktivlari auditi natijalari (mlrd so'm)

Korxona nomi	Aktivlarning balans qiymati	Auditdan keyingi aniqlangan tafovut	MHXS bo'yicha qayta baholash ta'siri
Navoiyazot AJ	12 450,5	-340,2	-2,7%
Farg'onaazot AJ	4 120,8	-115,4	-2,8%
Dehqonobod kaliy zavodi AJ	3 890,2	-85,6	-2,2%

4.1. Raqamli audit va SAP tizimining samaradorligi

O'zkimyosanoat AJda ERP tizimining, jumladan SAP platformasining auditorlik modullari bilan integratsiya qilinishi natijasida tekshiruvlarning qamrov darajasi va vaqt sarfi tahlil qilindi. Ilgari an'anaviy usulda operatsiyalarning 5–10 foizi tekshirilgan bo'lsa, raqamli audit orqali yuqori xavfli tranzaksiyalarning 100 foizi qamrab olindi. Bir yillik moliyaviy hisobot auditi uchun sarflanadigan vaqt o'rtacha 45 ish kunidan 28 ish kuniga qisqardi.

4.2. Investitsion jozibadorlik indeksining o'zgarishi

AXS asosida o'tkazilgan audit xulosalari O'zkimyosanoat AJning xalqaro kredit reytinglariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Fitch Ratings hamda Standard & Poor's kabi agentliklar tomonidan berilgan reytinglarda moliyaviy shaffoflik uchun ajratiladigan ballar 12 foizga oshgan.

Kimyo sanoatida eng katta iqtisodiy samara xomashyo va tayyor mahsulot zanjiridagi yashirin yo'qotishlarni aniqlash orqali erishiladi. Hisoblash formulasi:

$$E_{risk} = \sum (P_i \times L_i) \times K_{det}$$

Bu yerda:

P_i — muayyan moliyaviy yoki texnologik xatolikning sodir bo'lish ehtimoli;

L_i — ushbu xatolik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar miqdori;

K_{det} — raqamli algoritim yordamida xatoliklarni aniqlash koeffitsiyenti (odatda 0,8–0,9).

O'zkimyosanoat AJning yillik aylanmasi bir necha trillion so'mni tashkil etadi. Agar raqamli audit algoritmi xomashyo sarfi yoki mahsulot realizatsiyasidagi atigi 0,1 foiz miqdoridagi noaniqlik yoki manipulyatsiyani aniqlasa ham, bu milliardlab so'mlik mablag'larni korxona ixtiyorida saqlab qolish imkonini beradi.

O'zkimyosanoat AJ misolida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, audit jarayonlariga texnologik va moliyaviy ko'rsatkichlar konvergentsiyasiga asoslangan raqamli algoritmlarning joriy etilishi auditorlik xavfini 1,5–2,0 barobarga kamaytirish bilan birga, audit uchun sarflanadigan bilvosita xarajatlarni o'rtacha 18–22 foizga maqbullashtirish imkonini beradi (4-jadval).

4-jadval. Kutilayotgan natijalarning qiyosiy jadvali

Ko'rsatkichlar	An'anaviy audit (MHXS bo'yicha)	Raqamli kognitiv audit taklifi	Iqtisodiy effekt
Audit qamrovi (tranzaksiyalar)	10–15% tanlanma	100% yoppasiga	85% qamrov oshadi
Bir korxona auditi muddati	20–25 ish kuni	12–15 ish kuni	40% vaqt tejiladi
Inson omili ta'siri	Yuqori subyektiv	Past darajada, avtomatlashtirilgan nazorat	Xatoliklar kamayadi
Yillik o'rtacha iqtisodiy samara	Bazaviy daraja	Bazaviy + (0,5%–1% aylanma)	Milliardlab so'm



O'zkimyosanoat AJning 2020–2025-yillardagi faoliyatiga oid asosiy iqtisodiy hamda raqamlashtirish ko'rsatkichlarini jamlagan tahliliy jadval quyida keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar ochiq statistik hisobotlar va tarmoqni rivojlantirish dasturlari asosida shakllantirilgan (5-jadval).

5-jadval. O'zkimyosanoat AJning 2020–2025-yillardagi asosiy faoliyat ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	trln so'm	7,2	11,5	15,3	17,4	20,8	24,5
Eksport hajmi	mln dollar	210	340	480	520	580	650
Sof foyda miqdori	mlrd so'm	340	1 100	1 650	1 400	1 850	2 200
IT va raqamlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar	mlrd so'm	12	28	45	62	85	110
Tizimdagi jami xodimlar soni	kishi	31,5	32,2	34,1	35,0	36,2	37,0
ERP (SAP) tizimiga integratsiya bo'lgan korxonalar ulushi	foiz	15	35	55	75	90	100

Izoh: 2023-yildagi foyda miqdoriga energiya resurslari narxining oshishi hamda tashqi bozordagi kon'yunktura ta'sir ko'rsatgan.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, yuqorida taklif etilgan raqamli audit modelining iqtisodiy samaradorligini quyidagicha izohlash mumkin. Nazorat qamrovining oshishi bo'yicha, 2020-yilda ERP tizimi qamrovi atigi 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 100 foizga yetgan. Bu holat auditorlarga 24,5 trln so'mlik mahsulot aylanmasini to'liq raqamli nazorat qilish imkonini beradi.

Audit xarajatlarini maqbullashtirish nuqtayi nazaridan, agar 2025-yilda audit xarajatlari (xizmat haqi va xizmat safarlari) jami aylanmaning 0,05 foizini tashkil etsa, bu 12,2 mlrd so'mga teng bo'ladi. Raqamli algoritmlar orqali audit vaqtini 30 foizga qisqartirish natijasida yillik 3,6 mlrd so'm bevosita mablag'ni tejash mumkin.

Risklarni kamaytirish effekti bo'yicha, kimyo sanoatida 1 foizlik xatolik yoki yo'qotish 2025-yil prognoziga ko'ra 245 mlrd so'mga teng bo'ladi. Taklif etilayotgan raqamli algoritmlar ushbu riskni atigi 0,1 foizga kamaytirgan taqdirda ham, korxona uchun 24,5 mlrd so'mlik bilvosita iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zkimyosanoat AJda auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish nafaqat xatoliklarni kamaytiradi, balki korxonaning bozor qiymatini real baholash hamda xorijiy investorlar uchun shaffof muhit yaratishga xizmat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlar va korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy audit amaliyotini xalqaro standartlar — AXS talablari asosida transformatsiya qilish shunchaki texnik zarurat emas, balki tarmoqning global raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omildir.

Tadqiqot natijasida audit xavfining 20,4 foizdan 6,3 foizgacha kamaygani 315-AXS va 330-AXS standartlarining tizimli qo'llanishi bilan izohlanadi. Bu esa "raqamli nazorat muhiti" konsepsiyasining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'zkimyosanoat AJ misolida asosiy vositalarni MHXS bo'yicha qayta baholash jarayonida aniqlangan 2,7–2,8 foizlik tafovutlar aktivlarni inventarizatsiya qilish va baholash jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro standartlar asosida o'tkazilgan audit xulosalari tarmoqning shaffoflik indeksini 12 foizga oshirib, Fitch Ratings hamda Standard & Poor's kabi reyting agentliklarining ijobiy baholariga zamin yaratadi.

Kimyo sanoatida audit tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagilar taklif etiladi: 540-AXS talablaridan kelib chiqib, kimyoviy aktivlarni masofaviy baholashda dronlar va IoT (buyumlar interneti) texnologiyalaridan foydalanish uslubiyotini joriy etish; ichki audit xizmati xodimlarining MHXS va AXS bo'yicha xalqaro sertifikatlashga, jumladan ACCA hamda CIA darajalariga ega bo'lish ko'rsatkichini kamida 50–60 foizga yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, O'zkimyosanoat AJda moliyaviy hisobotlar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish korxonaning xalqaro bozordagi kapital qiymatini oshirish va xorijiy investorlar oldidagi hisobdorlikni yangi bosqichga olib chiqishning muhim yo'nalishlaridan biridir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adam Hayes, Margaret James. How to Account for Changes in the Market Value of Various Fixed Assets. 2021-yil 16-may.
2. Matias Laine, Helen Tregidga, Jeffrey Unerman. Sustainability Accounting and Accountability. 2021. DOI: 10.4324/9781003185611.
3. I.N. Qo'ziev. Auditorlik hisobotlarini tuzish va ularni umumlashtirish: nazariy va metodologik masalalar. Monografiya. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2015-yil. 194 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
